

SINFDAGI MUHIT



Vaziyatlarni o'qing. Rasmlarga diqqat bilan qarang.

1-vaziyat. Bolalar “qalpoq” degan o'yin o'ylab topishibdi. Qalpoqni bir-biriga otishadi, qo'liga qalpoq tushgan odam xuddi qalpoq uning qo'lini kuydirayotgandek, tezgina boshqa odamga otib yuboradi. Qalpoqning egasi ham ularga qo'shilib, qalpoqni otib o'ynaydi, qotib-qotib kuladi. Bugun uning qalpog'ini otib o'ynashgan bo'lsa, ertaga boshqa bolaning qalpog'ini otishadi. Birpas qalpoq otishgach, hazil-huzul qilib ketaverishadi.



2-vaziyat. Kecha ham shu bolaning qalpog'ini otib o'ynashgan edi, bugun ham otishyapti, ertaga ham xuddi shunday bo'ladi. Har kuni shu ahvol. Shunchaki otib o'ynashsa ham mayli edi, lekin bolalar uni masxara qilib, ustidan kulishadi; boshi sovqotsa ham qalpog'ini tortib olishadi; yalinsa ham berishmaydi. Oxirida esa qalpog'ini qo'liga bermay, yerga otib, o'zlari alohida ketishadi, bu bolani o'zlariga qo'shishmaydi.



1. Birinchi rasmdagi bolalarning kayfiyati qanday?
2. Ikkinchi rasmdagi bolalar nima qilyapti?
3. Bu vaziyatlardagi asosiy farq nimada?



Kimnidir doim xafa qilishsa, haqoratlashsa, biror narsasini olib, yashirib qo'yishsa, zarar yetkazishsa, turtkilashsa, xo'rlashsa, qo'rqitishsa – bu ingliz tilida “bullying” deyiladi. Kimnidir yakkalab qo'yishsa, doim jahlini chiqarishsa, u bilan hech kim gaplashmasa, birga o'tirmasa, yonida turmasa, so'rashmasa, u haqida yomon gaplar tarqatishsa, g'iybat qilishsa – bu ham “bullying” bo'ladi.



Siz o'ynayotgan o'yin hamma qo'shilib o'ynaydigan, hamma xursand bo'ladigan o'yinmi yoki yo'qmi? Buni qanday bilsa bo'ladi? Qaysi holat bullyingga o'xshayapti?

Hamma xursand

**Ular bilan
o'ynamaslikning
iloji yo'q**

**Kimnidir masxara
qilishadi**

**Hamma o'z
xohishi bilan
o'ynaydi**

**Bundan kimdir xafa
bo'ladi yoki qo'rqadi**





Birovning ustidan kulish yomon ishligini hamma biladi. Unda nima uchun shunday qilishadi?

Ko'pincha ayb o'sha hamma ustidan kulayotgan bolaning o'zida ekandek tuyuladi: "O'zi qanaqadir g'alati bola, hammaga o'xshamaydi (haddan tashqari aqlli yoki tentak, juda semiz yoki ozg'in, boshqacha kiyinadi, gapirishi boshqacha)". Ba'zan hammasini biror bezori boshlagandek, keyin boshqalar ham unga qo'shilgandek tuyuladi. Lekin aslida bulling "birovning ustidan kulish maza" degan yaramas qoidaga amal qiladigan jamoa kasalligidir. Bu kasalni esa hamma birlashib yo'q qilishi mumkin.



Ko'pincha bolalar kimdir ular haqida yomon va haqoratli so'zlar aytsa, xafa bo'ladilar. Ammo o'ylab ko'rsangiz, boshqalarning so'zlari bilan biz yomon bo'lib qolmaymiz-ku. Aksincha, haqoratli so'zlarni aytganlar haqida taassurotimiz salbiy tarafga o'zgaradi.



Anvar doskada masala yechayotgan edi, ko'paytirishda xatoga yo'l qo'ydi. Nodir buni ko'rib, "Voy ahmoq" dedi.



1. Nodir shunday desa, Anvar rostdan ham ahmoq bo'lib qoladimi? Yoki masalani noto'g'ri yechadigan bo'lib qoladimi? Karra jadvalini esidan chiqarib qo'yadimi? Anvarning o'rtoqlari uni yomon ko'rib qoladimi?
2. Nodirning qilgan ishi to'g'rimi? Atrofdagilar buni qanday qabul qiladi?



Komilaning dadasi uy sotib oldi. Yangi uyga ko'chib kelishdi. Endi Komila shu yerdagi maktabga boradigan bo'ldi. U sinfga kirib kelib, salom berdi:

– Ass...ss.. salom...

Komila hayajonlansa, har doimgidan ham ko'proq duduqlanib qolar edi.

– Iya, sen duduqmisan? – kuldi Umida. Unga qo'shilib, yana bir-ikkita bolalar ham kulib yuborishdi.

– Umida, juda qo'pol gapirding. Bizning sinfda bunday muomala qilinmaydi! – o'qituvchi shunday deb Umidaga qarab qo'ydi.

Komilaning ustidan kulgan bolalar xijolat bo'lib qolishdi. Shu payt qo'ng'iroq chalinib, hamma joyiga o'tirdi. Keyingi tanaffusda hamma Komilaning oldiga to'planib oldi. U bilan tanishishdi, qayerda turishini so'rashdi, ertadan boshlab maktabga birga keladigan bo'lishdi.



1. Nima deb o'ylaysiz, Komila yangi maktabga qanday kayfiyatda kelgan edi?
2. Umidaning gapidan keyin Komila qay ahvolga tushdi?
3. Sinfingizga yangi o'quvchi kelsa, o'rganib ketgunicha unga qanday yordam berasiz?



Agar sinfda tez-tez bulling bo'lib tursa yoki uzoq vaqt davom etsa, demak, bu – butun sinfnng, jamoaning kasali. Uni birgalikda davolash kerak bo'ladi.

Aslida, bullingni yo'qotish juda oson, bunga xohish bo'lsa yetarli. Sinfdagi bir nechta bola “Endi kimdir birovning ustidan kulsa yoki masxara qilsa, indamay qarab turmaymiz”, – deb kelishib olsa bo'ldi. Bir o'ylab ko'rib, nima qilishni kelishib olish kerak.



Sinfdoahlaringiz bilan maslahatlashib, “Birgalikda bullingga qarshi kurashamiz” mavzusida ko'rsatmalar ro'yxatini tuzing. Ro'yxatdagi qaysi maslahatlarga qo'shilasiz?

- “Bu yaxshi ish emas. Bo'ldi, buni to'xtataylik”, deyish kerak.
- Kamsitilgan bolaning oldiga borib, “Bulardan qo'rqma, ularning gapiga e'tibor berma”, deyish kerak.
- Aralashmaslik kerak, o'zlari kelishib olishadi.
- Ularga “Bu ishlaringiz bizga yoqmayapti. To'xtatmasangiz, ustozlarga aytib beramiz”, deyish kerak.
- Sinfdoahingizni xafa qilgan bo'lsangiz, kechirim so'rang.
- Kuchlilar bilan tortishmaslik kerak, nima to'g'riligini ular yaxshiroq biladilar.
- Bullingga uchragan bolaning ko'nglini olish, u bilan o'rtoq bo'lish kerak.



Sinfda o'zaro hurmat va ahillik bo'lsa, bulling paydo bo'lmaydi.



Sinfda hamma ahil bo'lishi uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerak? Javoblaringizni yozing.